

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA KO'RSATILADIGAN BANK XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Pardaev Umidjon Uralovich,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Huzuridagi
Davlat boshqoruv akademiyasi
kafedra mudiri, PhD, dotsent
Soatov Abbos Baxromovich
(TBC bank mijozlarga xizmat
ko'rsatish bo'limi mutaxassisi, Oriental
universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

baxromovich4@gmail.com Telefon:977770180

Annotatsiya : Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlariga (KBS) ko'rsatilayotgan bank xizmatlari va ularni moliyalashtirish tizimi har tomonlama tahlil qilingan. Bank xizmatlarining mavjud holati, tizimli kamchiliklari, hududiy tengsizliklar, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va xalqaro (Osiyo, Yevropa, AQSH) tajribalari asosida solishtirma tahlillar o'tkazildi. Sun'iy intellekt, fintech, islomiy moliyalashtirish kabi innovatsion yechimlar asosida O'zbekiston sharoitida kichik biznesni moliyalashtirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ilmiy asoslangan takliflar orqali kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlarni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatildi.

Kalit so'zlar : Kichik biznes subyektlari (KBS), moliyalashtirish, bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, fintech, islomiy moliyalashtirish, AI reyting tizimi, xalqaro tajriba, O'zbekiston iqtisodiyoti, kredit siyosati.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the banking services provided to small business entities (SBEs) in the Republic of Uzbekistan and the financing system for such services. It examines the current state of banking

services, systemic shortcomings, regional disparities, the level of digital technology adoption, and includes a comparative analysis based on international experiences (Asia, Europe, USA). An improved model for financing small businesses in Uzbekistan has been developed, based on innovative solutions such as artificial intelligence, fintech, and Islamic financing. Scientifically grounded proposals have been presented to organize financial services for small businesses more effectively.

Keywords: Small business entities (SBEs), financing, banking services, digital transformation, fintech, Islamic financing, AI-based rating system, international experience, Uzbekistan's economy, credit policy.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ банковских услуг, предоставляемых субъектам малого бизнеса (СМБ) в Республике Узбекистан, а также системы их финансирования. Рассмотрены текущее состояние банковских услуг, системные недостатки, региональные диспропорции, уровень внедрения цифровых технологий, а также проведен сравнительный анализ на основе международного опыта (Азия, Европа, США). Разработана усовершенствованная модель финансирования малого бизнеса в условиях Узбекистана, основанная на инновационных решениях, таких как искусственный интеллект, финтех и исламское финансирование. Представлены научно обоснованные предложения по эффективной организации финансовых услуг для малого бизнеса.

Ключевые слова: Субъекты малого бизнеса (СМБ), финансирование, банковские услуги, цифровая трансформация, финтех, исламское финансирование, система рейтингов на базе ИИ, международный опыт, экономика Узбекистана, кредитная политика.

Kirish

Kichik biznes — har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini daromad manbalari bilan ta’minlash va ichki bozorni barqarorlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham bu sektor davlat

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olingan. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish manbalarining cheklangani, ayniqsa bank kreditlari olishdagi muammolar, ular faoliyatining kengayishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlari uchun bank xizmatlarining moliyalashtirilish holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹ gi 04.09.2023 yildagi PQ-292 sonli qarorlarida o‘tgan ikki yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari natijasida tadbirkorlik sohasida ko‘plab tizimli muammolar hal etildi, shu jumladan biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta‘minlash bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”² 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son [qaroriga](#) muvofiq: “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) amalga oshirilish belgilab qo‘yildi. **Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda bank xizmatlarini ko‘rsatish hamda moliyalashtirish borasida yetarliycha huquqiy hujjatlar mavjud.**


Kichik biznes va uning iqtisodiyotdagi o‘rni Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda katta rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning 1-choragida kichik biznes:

- Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi: **54,7%**

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 04.09.2023 yildagi PQ-292 sonli qarori

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 14.09.2023 yildagi PQ-306 son qarori

- Aholi bandligidagi ulushi: 75%
- Eksportdagi ulushi: 27%



1-grafik . Kichik biznes va uning iqtisodiyotdagi o‘rni

So‘nggi uch yilda kichik biznes subyektlarining soni 28 foizga oshgan bo‘lsa-da, ularning moliyaviy ta‘minoti bu o‘shishni izlab bormagan. Shu bois davlat tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar orqali kichik biznesni rivojlantirishga yordam berish choralari ko‘rilmoqda.

Davlat rahbariyati tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab qonun hujjatlari va farmonlar qabul qilindi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ammo moliyaviy xizmatlardan foydalanishda regional tengsizlik, garov talablari, yuqori foiz stavkalari dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda bank-moliya tizimining KBS bilan ishlashdagi holati va kamchiliklari, 2025-yil boshida mavjud 33 ta bankdan 26 tasi KBS bilan ishlaydi. 2024-yilda kichik biznesga berilgan kreditlar umumiy bank kreditlarining 18.2%ini tashkil etdi.

Asosiy kamchiliklar: Yuqori garov talablari, uzoq muddatli tahlil, raqamli xizmatlarning cheklanganligi, markazlashgan xizmatlar yetishmasligi. Kreditlar olishda ta‘minot (zalog) talablari yuqori, Bank tizimidagi raqamlashtirish hali hamma hududlarda teng darajada emas, Ayrim banklar imtiyozli kredit siyosatini to‘liq bajarmaydi.

Xalqaro tajriba (Osiyo, Yevropa, AQSH): Solishtirma tahlil;

Osiyo: Xitoyda WeBank va Ant Financial AI asosida KBS reytingini baholaydi. Koreyada KDB Bank fintech bilan integratsiyalashgan kreditlar berishni yo'lga qo'ygan.

Yevropa: Germaniyada KfW Bank kichik biznesni grantlar, kafolatlar bilan qo'llaydi. Raqamli lizing, green-finance joriy etilgan.

AQSH: SBA (Small Business Administration) orqali davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar beriladi. Fintech platformalar (Lendio, Kabbage) orqali kredit olish tez va soddalashtirilgan.

Tahlil: O'zbekistonda bu tajribalarni lokal sharoitga moslashtirib joriy etish lozim.

Osiyo davlatlari tajribasi bilan solishtirma tahlil: Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Malayziya misolida

O'zbekistonning kichik biznesni moliyalashtirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish sohasidagi tajribasini chuqur tahlil qilish uchun uni Osiyodagi ilg'or mamlakatlar bilan solishtirish muhim ahamiyatga ega. Quyida Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Malayziya tajribalari O'zbekiston sharoitida qanday qo'llanilishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Xitoyda kichik va o'rta biznes subyektlarini (KOB) moliyalashtirishda Ant Financial (Alipay), WeBank kabi fintech kompaniyalar muhim rol o'ynaydi. Ular banklar bilan hamkorlikda garovsiz kreditlash tizimini yaratgan.

- Kredit olish jarayoni: 100% onlayn, AI orqali kreditga layoqat baholanadi.
- 2024-yil holatiga KOB kreditlarining 60% dan ortig'i fintechlar orqali berilgan.
- Davlat banklari kichik biznes uchun past foizli kreditlar ajratadi (8–10% yillik)

Raqamli reyting tizimi joriy qilingan, har bir tadbirkorning savdo aylanmasi asosida avtomatik "risq profili" shakllantiriladi.

Koreyada "Digital Korea" konsepsiyasi orqali kichik biznesga ko'rsatilayotgan xizmatlar to'liq raqamlashtirilgan.

- Biznesni ro'yxatdan o'tkazish – 30 daqiqa
- Bank kreditlari – 48 soat ichida qaror
- “KOBİ Bank” va “K-Startup Platform” orqali davlat tomonidan kafolatlar beriladi

2024-yilda KOBİ sektorining bank kreditlaridagi ulushi – 36% (O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi ~17%)

Singapur: Smart-moliyalashtirish va inkubator tizimi

Singapur hukumati kichik bizneslarni nafaqat kreditlar, balki **grantlar, subsidiyalar, tadbirkorlik inkubatorlari orqali** qo'llab-quvvatlaydi.

- “Enterprise Singapore” – kichik biznesga moliyaviy va texnik ko'mak
- “Startup SG Tech” – davlat grantlari bilan innovatsion startaplarni rag'batlantirish
- Bank kreditlarining 70% gacha qismi davlat tomonidan kafolatlanadi

Kreditga yondashuv “Kredit + Innovatsiya” modeliga asoslanadi.

Malayziya: Islomiy moliya va mikrofinans tarmog'i

Malayziyada kichik biznes uchun **islomiy moliyalashtirish** keng tarqalgan, bu esa O'zbekiston uchun muhim tajriba.

- “Bank Rakyat”, “Maybank Islamic” – halol kredit mahsulotlari (Murabaha, Ijara)
- “TEKUN Nasional” – kichik va o'rta korxonalarni subsidiyalash dasturi
- 2024-yilda 800 mingdan ortiq kichik tadbirkorlar maxsus mikrograntlar olgan

Kichik biznesga moslashtirilgan shariatga muvofiq moliyalashtirish tizimi ishlaydi.

Davlat	KOB ulushi (%) YaIMda)	Kredit ulushi (%)	Moliyalashtirish vositalari
--------	------------------------------	----------------------	--------------------------------

Xitoy	65%	60%	Fintech, AI-kreditlar, davlat kafolati
Jan. Koreya	52%	36%	Mikrokredit, davlat kafolati, onlayn platformalar
Singapur	48%	38%	Grantlar, inkubatorlar, smart-credit
Malayziya	38%	27%	Islomiy kredit, subsidiyalar
O'zbekiston	25%	17%	Bank kreditlari, qisman raqamli xizmatlar

1-jadval. Ayrim davlatlarda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish ko'rsatkichlari (2024-2025).

Kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushi va ularni moliyalashtirish vositalari mamlakatlar iqtisodiy siyosati va moliyaviy tizimining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Osiyo mamlakatlari tajribasi bu borada o'ziga xos modelga ega bo'lib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda innovatsion yondashuvlar, davlat kafolatlari va raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi.

Masalan, Xitoyda kichik biznes subyektlari YaIMning 65 foizini tashkil qiladi va umumiy kreditlarning 60 foizi aynan ushbu toifadagi korxonalarga ajratiladi. Bu natijalarga fintech texnologiyalari, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan kredit reyting tizimlari, hamda davlat tomonidan beriladigan kafolatlarning keng qo'llanilishi orqali erishilmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq. Bu davlatda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 52 foizni tashkil etadi. Kichik tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar umumiy bank kreditlarining 36 foizini tashkil qilmoqda. Bunga mikrokredit tizimlari, davlat kafolatlari va onlayn moliyalashtirish platformalari sabab bo'lmoqda.

Singaporda esa kichik biznesning YaIMdagi ulushi 48 foiz atrofida bo'lsa-da, davlat ularni innovatsion grant dasturlari, inkubator va akseleratorlar orqali qo'llab-quvvatlaydi. Banklar esa "smart-credit" deb ataluvchi avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlarini keng qo'llaydi.

Malayziyada islomiy moliyalashtirish mexanizmlari muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan bo'lib, KBS kreditlash tizimida muhim o'rin tutadi. Bu davlatda kichik biznes YaIMning 38 foizini tashkil qiladi, kredit ulushi esa 27 foiz atrofida. Islomiy kreditlar va davlat subsidiyalari kichik korxonalar uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

O'zbekiston bilan solishtirganda, ko'plab farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni paytda respublikada kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushi 25 foiz atrofida, umumiy bank kreditlaridagi ulushi esa 17 foizdan oshmaydi. Moliyalashtirish asosan bank kreditlari orqali amalga oshiriladi, lekin raqamli xizmatlar hali to'liq rivojlanmagan. Bu esa kichik biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan to'liq foydalana olmasligiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda muhim o'rin egallayotgan bo'lsa-da, moliyalashtirish sohasida qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan:

- Bank xizmatlariga yetarlicha kirish imkoniyati yo'q, ayniqsa chekka hududlardagi KBS uchun.
- Raqamli xizmatlar rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularning KBS ehtiyojlariga to'liq mosligi ta'minlanmagan.
- Kredit olish uchun garovlar tizimi haddan tashqari qat'iy, bu esa ko'plab kichik tadbirkorlar uchun to'siq bo'lib qolmoqda.
- Yagona moliyaviy infratuzilma va reyting tizimi sust rivojlangan.

Xalqaro (Osiyo va Yevropa davlatlari) tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, davlat kafolati va fintech startaplar orqali kichik biznesga kredit resurslarini soddalashtirish va diversifikatsiya qilish mumkin.

Ilmiy asoslangan takliflar

1. Bank xizmatlarining transformatsiyasi: “Smart-banking for KBS” konsepsiyasi

Kichik biznes uchun alohida bank xizmatlar to'plamini ishlab chiqish zarur:

- KBS uchun **soddalashtirilgan hisobraqam** ochish
- Kichik kreditlar uchun **garovsiz moliyalashtirish paketlari**
- Hisob-kitoblar, soliq va eksport-import uchun **birlashtirilgan bank xizmatlari**

2. AI asosida kredit baholash algoritmini yaratish:

O'zbekistonda KBS uchun individual kredit riskini sun'iy intellekt orqali baholovchi **milliy reyting tizimi** yaratish:

- Tadbirkorning savdo aylanmasi, ijtimoiy tarmoqdagi faolligi, to'lov tarixi asosida AI reytingi
- Bu model Xitoy, Koreya, AQSHda muvaffaqiyatli ishlamoqda

3. Fintech startaplarni soliq va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash

Yangi moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish uchun:

- Fintech startaplar uchun **0% soliq stavkasi** (3 yilgacha)
- Yagona fintech-regulyator organi tashkil etish
- Fintech uchun ochiq API siyosatini kengaytirish (banklar ma'lumotlar bazasiga ulanish imkoniyati)

4. Islomiy moliyalashtirish asosida moslashtirilgan mahsulotlar

Ko'plab kichik tadbirkorlar shariatga zid bo'lmagan moliyalashtirishga ehtiyoj sezmoqda:

- "Murabaha mikroqarz", "Ijara kredit", "Tadbirkorlik musharakasi" kabi mahsulotlar
- Bu tajriba Malayziya, Turkiya va BAAda muvaffaqiyatli amaliyotga ega

5. "Digital Tadbirkor" platformasini kengaytirish

Davlat xizmatlari, banklar, soliq idoralari, sug'urta va grant tashkilotlari **yagona raqamli platforma** orqali integratsiyalashishi kerak:

- Onlayn biznes ro'yxatga olish
- Kredit olishga ariza berish
- Davlat subsidiyalari va grantlariga murojaat qilish

- Soliq hisoboti topshirish

6. Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tengligini ta'minlash

Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida bank xizmatlari kam rivojlangan.

- Mahalliy "Kichik biznes markazlari" ochish
- Mobil bank filiallarga sarmoya jalb qilish
- Har bir hududda KBS kreditga layoqat reytingini e'lon qilib borish

Maqolada ilk marotaba **"AI-baholovchi moliyalashtirish modeli"**, **"Fintech-sug'urta integratsiyasi"**, va **"Islamic microfinance clusters"** tushunchalari O'zbekiston sharoitida amaliy joriy etish taklifi bilan berildi. Bu yangiliklar kichik biznes subyektlarini faqat kredit bilan emas, balki raqamli muhitga integratsiyalashgan holda moliyaviy barqarorlikka olib keladi.

Yakuniy xulosa

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini bank xizmatlari orqali moliyalashtirish tizimi hali to'liq ishlamayotganiga qaramay, bu yo'nalishda katta salohiyat mavjud. Tizimli muammolarni hal qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni moslashtirish orqali bank xizmatlarini adolatli va samarali tashkil etish mumkin. Bu esa o'z navbatida kichik biznesning iqtisodiyotdagi rolini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida kichik biznesni samarali moliyalashtirish uchun quyidagilar asosiy yo'nalish bo'lishi mumkin: bank kreditlash siyosatini yumshatish, garovsiz kreditlar uchun davlat kafolatlarini kengaytirish, fintech va AI asosidagi baholash tizimlarini joriy etish, raqamli moliyaviy xizmatlarni hududlarda rivojlantirish hamda islomiy moliyalashtirish asosida kredit liniyalarini ochish. Bularning barchasi kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston uchun kichik biznes subyektlarini moliyaviy xizmatlar bilan to'liq ta'minlash:

- Moliyaviy infratuzilmani raqamlashtirish
- Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish
- Islomiy va alternativ moliyalashtirish manbalarini ko'paytirish
- Xalqaro tajribalardan lokal sharoitda moslashgan model yaratish

orqali amalga oshadi. Bu strategiyalarni izchil amalga oshirish nafaqat bank tizimini, balki butun iqtisodiy muhitni tadbirkorlikka qulay va inklyuziv holatga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari**
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 04.09.2023 yildagi PQ-292 sonli qarori
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 14.09.2023 yildagi PQ-306 son qarori
2. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy axborotlari va statistik hisobotlari**
 - www.cbu.uz – Markaziy bank kredit portfeli va moliyaviy xizmatlar statistikasi.
 - “Bank tizimi faoliyati 2023-yil yakunlari bo'yicha statistik sharh.” (Markaziy bank hisobotlari)
3. **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari**
 - www.stat.uz – Kichik biznes ulushi, YaIMdagi hissasi va moliyalashtirish ko'rsatkichlari.
 - “O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik va xususiy sektor: 2023-yil statistik to'plami.”
4. **Lex.uz – Normativ-huquqiy hujjatlar bazasi**
 - www.lex.uz – Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlar.
5. **Xalqaro tashkilotlar va ilmiy bazalar**

- World Bank: “SME Finance Policy Guide” (2022).
- OECD: “Financing SMEs and Entrepreneurs: An OECD Scoreboard.”
- Asian Development Bank: “Digital Financial Inclusion for SMEs in Asia” (2023).
- IMF Working Papers on Islamic Finance and SME development.